

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand viloyat statistika

boshqarmasi boshlig‘i

Sh. Abdiyev

2025 y.



Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo‘limi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar:

- Mazkur Nizom Samarqand viloyat statistika boshqarmasi Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo‘limining (keyingi o‘rinlarda Bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
- Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘RQ-707-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Samarqand viloyat statistika boshqarmasining (keyingi o‘rinlarda Boshqarma deb ataladi) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.
- Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning me‘yoriy qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi qarorlari va tavsiyalariga, “Samarqand viloyat statistika boshqarmasi to‘g‘risida”gi Nizomga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.
- Bo‘lim o‘z faoliyatini Samarqand viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i rahbarligida amalga oshiradi.
- Bo‘lim o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarma boshlig‘i o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

2-bob. Bo‘limning asosiy vazifalari va funksiyalari:

- 5. Bo‘limning AKT sohasida asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
 - a) hududiy statistika organlarida AKT rivojlantirish sohasida:

statistika organlarida AKTni joriy etish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish;
boshqarma hamda shahar va tuman statistika bo'limlarida AKTni rivojlantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

b) axborot tizimlari tarmoqlarini boshqarish sohasida:

tarmoqlarning topologiyasini, tarmoq va kommunikatsiya uskunalari tuzilishini aniqlash;
boshqarma hamda shahar (tuman) statistika bo'limlarida mahalliy kompyuter tarmog'ini boshqarish;
server uskunalari va axborot tizimlarini nazorat qilish;

• **6. Bo'lim oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:**

tarmoqlarning topologiyasini, tarmoq va server uskunalari tarkibini aniqlaydi;
domen zonalar, serverlar, boshqarma hamda hududiy statistika organlarining korporativ tarmoqlari faoliyatini nazoratini yuritadi;
axborot resurslari va tizimlarining ish faoliyatini nazorat qiladi;
foydalanuvchilarning ishini nazorat qiladi, o'z vakolatlari doirasida axborot xavfsizligi buzilishlarini tekshirish ishlarida ishtirok etadi;
Internet tarmog'iga kirishni qo'llab-quvvatlaydi;
Boshqarma hamda hududiy statistika organlarida kompyuter texnikasi, periferiya uskunalari va nusxa ko'chirish uskunalari kuzatib boradi va qayd etadi;
texnik hujjatlar talablariga muvofiq profilaktik va rejali ogohlantirish ishlarni olib boradi;
kompyuter texnikasi va boshqa texnik vositalarni sotib olish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;
aloqa liniyalari va asbob-uskunalarining nazorat qiladi;

• **7. Bo'limning statistik registrlarni yuritish sohasida asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

a) statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatishda yagona siyosatni ishlab chiqish va bajarish:

statistik registrlarni yuritish sohasida davlat statistika printsiplari va xalqaro standartlarga javob beradigan yagona statistika uslubiyotiga rioya etilishini ta'minlash;

b) xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish sohasida:

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (keyingi o'rinlarda KTYADR deb ataladi) ma'lumotlarini makroiqtisodiy, tarmoq va hududiy darajalarda o'rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qamrovini kengaytirishga qaratilgan statistika ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashning zamonaviy metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish jarayonida ishtirok etish;

iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini ishlab chiqish, joriy etish va yuritishda ishtirok etish;
umumdavlat va ichki idoraviy statistik tasniflagichlar asosida yuridik shaxslarni identifikatsiyalashning yagona printsiplarini ta'minlash;

Davlat statistika sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda bo'lim vakolati doirasida ishtirok etish;

KTYADR sohasidagi ko'rsatkichlarni hisoblash metodikalarini doimiy ravishda takomillashtirishni amalga oshirishda ishtirok etish.

v) ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish sohasida:

Davlat statistika ishlari dasturining KTYADR sohasidagi oid qismini bajarilishini ta'minlash; yuridik shaxslarni hisobga qo'yish va ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ishlarga uslubiy rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish;

KTYADR ma'lumotlari elektron bazasini yuritish; KTYADRni rivojlantirishining metodologik asoslari va yunalishlarini ishlab chiqish, 2 undagi ma'lumotlarni aktual darajada saqlash; umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofiq statistik metama'lumotlar tizimini yaratish va rivojlantirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

Boshqarmaning tarmoq bo'limlari bilan birgalikda statistik registrlarni yuritish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

qonunchilikka muvofiq, bo'lim ish faoliyatida shakllangan arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshirish;

Boshqarmaning tarmoq bo'linlarini statistik kuzatuv obyektlari haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash.

g) belgilangan tartibda davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini xizmatlar statistikasiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash sohasida:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlari ijrosi yuzasidan bo'lim vakolati doirasida yillik va choraklik statistik hamda tahliliy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish;

KTYADR sohasi bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlarni davlat statistika organlari, boshqa davlat organlari nashrlarida joylashtirish uchun va barcha foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlash;

KTYADR sohasi bo'yicha ochiq statistik axborotlarni almashish, viloyatning rivojlanishi to'g'risida materiallarni statistik to'plamlarda chop etish uchun axborotlarni tayyorlashda ishtirok etish;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun KTYADR sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar tayyorlash;

d) Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri va statistika ishlarini tashkil qilish uchun zarur iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalarni yuritish sohasida:

yagona tizim asosida yuridik shaxslarni davlat tomonidan hisobga olish va identifikatsiyalashni, korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash hamda rivojlantirishni ta'minlash;

o'zaro mos axborot tizimlarini va resurslarini yaratish uchun asos sifatida statistik klassifikatorlardan foydalanishni ta'minlash;

KTYADRni aktuallashtirish va tasarruf etish, KTYADRdagi korxonalar va tashkilotlar ma'lumotlarini kiritishda yuzaga kelgan xatolarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlaydi;

korxonalar va tashkilotlar haqida belgilangan tartibda to'liq va aniq ma'lumotlar bilan davlat va xo'jalik boshqaruv organlari hamda boshqa foydalanuvchilarni ta'minlaydi;

KTYADR ma'lumotlar bazasining arxiv nusxalarini saqlashni amalga oshiradi;

Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar, soliq organlari va boshqa organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi; ro'yxatdan o'tkazuvchi organlardan kelib tushadigan KTYADR ma'lumotlari bilan ishlashni amalga oshiradi;

KTUT kodlarini biriktirilishi va uni takrorlanishini nazorat qiladi;

Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari tarkibiga kiruvchi tuzilmalar bo'yicha solishtirish ishlarini amalga oshiradi;

KTYADR foydalanuvchilariga axborot-ma'lumotnoma xizmatini ko'rsatadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko'rib chiqadi va ulardagi masalalarni hal qilish bo'yicha, zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida, takliflar tayyorlaydi;

KTYADRdagi klassifikatsiyalashtirish ko'rsatkichlarini davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish jarayonida olingan dastlabki statistika ma'lumotlari asosida o'z vaqtida o'zgartirishni amalga oshiradi;

statistika maqsadlari uchun zarur bo'lgan statistik klassifikatorlar va nomenklaturalar tizimini yuritadi va ularga o'zgartirishlar kiritadi, xalqaro standart klassifikatorlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishini amalga oshiradi;

KTYADRning axborot resursiga statistik tasniflagichlarni joriy etish va ulardan foydalanish borasida KTYADRni yuritish metodologiyasini takomillashtirishni amalga oshiradi;

statistik registr sohasiga oid maxfiy statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

Bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi, xolisligi, tezkorligi, kompleksligi va tizimlilikini ta'minlaydi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Bo'lim o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

3-bob. Bo'limning huquq va majburiyatlari:

- Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:
Bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish davomida belgilangan tartibda Boshqarma hamda shahar (tuman) statistika bo'linmalaridan zarur material va ma'lumotlarni so'rash va olish;
Boshqarma rahbariyatiga AKT va KTYADR sohasidagi ishlarni samaradorligini oshirish va rivojlantirish masalalari bo'yicha takliflar kiritish;
Boshqarma hamda hududiy statistika organlarida AKT va KTYADR sohalrda yagona siyosatni joriy etish va rivojlantirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;
Bo'lim vakolatiga kiruvchi ishlarni bajarish bo'yicha muvofiqlashtirish va nazorat qilish;
Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Boshqarma bo'linmalari bilan instruktiv majlislar o'tkazish;
Bo'lim faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha konferensiya ishlarida, shu jumladan seminar va majlislarda, shuningdek xalqaro loyihalarda ishtirok etish.
Davlat statistikasi sohasida normativ-huquqiy bazani yanada rivojlantirish va takomillashtirish, KTYADR metodologiyasi va metodikasini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;
Bo'lim vakolati doirasida Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq statistik ishlanmalarni tayyorlash muddatlariga amal qilinishini nazorat qilish;
tarkibiy tuzilmalarni yuritish masalasi bo'yicha tashkilot va idoralar vakillari bilan birgalikda ishlash;
KTYADRni qonun hujjatlariga muvofiq yuritilishini ta'minlash;
Davlat statistikasi prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalanilayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

4-bob Bo'limning javobgarligi:

- Bo'limga yuklatilgan vazifalarni haqqoniy tarzda va samarali amalga oshirish;
Bo'lim vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa ma'lumotlarni yuqori darajada tayyorlash;
KTYADRni qonun hujjatlariga muvofiq yuritilishini ta'minlash.
Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash;
Bo'limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallar bo'yicha davlat va tijorat sirlarining saqlanishi, yakka tartibdagi ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilinishi uchun javobgar bo'ladi.

5-bob. Bo'lim tuzilmasi:

- Bo'lim tuzilmasi Bo'lim boshlig'i va bosh mutaxassisni o'z ichiga oladi.
- Bo'limning ishlarida Bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

- Bo‘lim boshlig‘i va bosh mutaxassis lavozimiga O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi bilan kelishgan holda tayinlanadi.

6-bob. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish:

- Bo‘lim faoliyati O‘zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to‘g‘risida"gi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan Statistika ishlari dasturiga, Samarqand viloyat statistika boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizomga, ushbu Nizomga, buyruq va farmoyishlarga muvofiq tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi direktori ko‘rsatmalariga, Samarqand viloyat statistika boshqarmasi rahbarining buyruqlar va yo‘riqnomalariga, shuningdek, davlat organlarining rejalari asosida, Bo‘lim ish rejalari va Bo‘lim xodimlarining funksional majburiyatlari asosida tashkil etiladi.

Bo‘limning ish rejasi viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadigan viloyat statistika boshqarmasining ish rejalari asosida shakllantiriladi.

Xodimlarning funksional majburiyatlari Bo‘lim boshlig‘i tomonidan tayinlangan vazifalar asosida tayyorlanadi va boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

7. Bo‘lim boshlig‘i:

- Bo‘limning butun faoliyatiga rahbarlik qiladi, bo‘lim tarkibiga kiruvchi xodimlarning ishlarini tashkillashtiradi, Bo‘limga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarilishi, ijro va mehnat intizomi nazoratini yuritadi;
- Bo‘lim xodimlar jadvali va tasdiqlangan tuzilmaga muvofiq nomzodlarni malaka darajasini oshirish, kasbiy faoliyatini oshirish, imtiyozlar va ularni intizomiy jazolash chora tadbirlarini aniqlik va diqqat bilan o‘rganib chiqqan holda rahbariyatga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi;
- Bo‘lim xodimlari o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlaydi;
- Viloyat statistika boshqarmasi majlislari va yig‘ilishlarida, shuningdek Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyati topshirig‘iga asosan bo‘lim faoliyatiga kiruvchi va idoralararo ishchi guruhlar masalalarida ishtirok etadi;
- Viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i topshiriqlariga muvofiq materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, qo‘yilgan ustuvor vazifalarni yechishda yanada samarali takliflarni ishlab chiqish va tayyorlashni amalga oshiradi;
- O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining va Boshqarmaning joriy va istiqbol ish rejalari muvofiq Bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tahliliy va boshqa materiallarni o‘z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta‘minlaydi;
- Bo‘lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to‘ldirish choralarini ko‘radi;
- Bo‘lim kadrlar zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta‘minlaydi;
- Bo‘lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo‘riqnoma berish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;

- ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta'minlaydi.
- Boshqarma hamda hududiy statistika bo'limlarida yaxlit va xavfsiz axborot makonini yaratadi;
- Tarmoqning topologiyasini, tarmoq va aloqa uskunalari tuzilishini aniqlaydi, korporativ tarmog'i orqali elektron shaklda uzatiladigan yoki saqlanadigan jami ma'lumotlarning yaxlitligi va konfidensialligini himoya qilish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshiradi;
- Dasturiy va texnik vositalar ta'minotini yangilash hamda zaxira nusxa (backup) olish ishlarini amalga oshiradi;
- server uskunalarini, mahalliy ma'lumotlar bazalarini va axborot tizimlarini nazorat qiladi;
- Statistika boshqarmasi axborot tizimlariga va tarmoq servislardan foydalanuvchilarga berilgan vakolatlar doirasida foydalanishning cheklanishini ta'minlaydi;
- Internet tarmog'iga ulanishni tashkil etadi, ishlashini ta'minlaydi hamda nazorat qiladi.
- hududiy statistika organlari faoliyatini kompleks va maqsadli o'rganishlarda ishtirok etadi;

8. Bo'lim boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bosh mutaxassis bajaradi;

9. Bosh mutaxassis:

- KTYADR (Korxona va tashkilotlar yagaona davlat registri) va statistik registrlarni yuritish va kelgusida uni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqamli statistik registrlar sohasida yagona metodologiyani ishlab chiqishda ishtirok etish;
 - ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardan olingan ma'lumotlarni to'plash va saqlash, shuningdek, ularni Boshqarmaning tegishli tarkibiy bo'linmalariga belgilangan tartibda taqdim etish;
 - raqamli statistik registrlarni texnik qo'llab-quvvatlash, uning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish, uzluksiz ishlashini ta'minlash hamda idoraviy axborot tizimlari va resurslari bilan integratsiya qilish bo'yicha ishlarni tashkil etishda ishtirok etish;
 - belgilangan muddatlarda oylik va choraklik statistik axborotlar, byulletenlar, to'plamlar, murojaatlar uchun ma'lumotlarni o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlash.
 - Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan KTYADR (Korxona va tashkilotlar yagaona davlat registri)ga tegishli so'rovlarga o'z vaqtida tegishli tartibda jabob xatlari tayyorlash.
 - korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha yig'ma tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish;
 - bo'lim faoliyatiga tegishli statistika ma'lumotlarining metama'lumotlarini ishlab chiqish, yangilash, kelishish va yuritish ishlarini tashkil etish.
- iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini ishlab chiqish, joriy etish va yuritishda ishtirok etish;

umumdavlat va ichki idoraviy statistik tasniflagichlar asosida yuridik shaxslarni identifikatsiyalashning yagona prinsiplarini ta'minlash;

Davlat statistika ishlari dasturining KTYADR sohasidagi oid qismini bajarilishini ta'minlash;
yuridik shaxslarni hisobga qo'yish va ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritish va ularni muvofiqlashtirish;

KTYADR ma'lumotlari elektron bazasini yuritish;

KTYADRni rivojlantirishining metodologik asoslari va yunalishlarini ishlab chiqish,

Samarqand viloyati statistika boshqarmasining tarmoq bo'limlari bilan birgalikda statistik registrnlarni yuritish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

KTYADR sohasiga oid statistik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash; qonunchilikka muvofiq, bo'lim ish faoliyatida shakllangan arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshirish;

Boshqarma tarmoq bo'linlarini statistik kuzatuv obyektlari haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash.

KTYADR sohasi bo'yicha ochiq statistik axborotlarni almashish, viloyatning rivojlanishi to'g'risida materiallarni statistik to'plamlarda chop etish uchun axborotlarni tayyorlash;

KTYADR sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi oylik, choraklik va yillik statistik hamda tahliliy materiallarni tayyorlash;

KTYADR sohasiga oid statistik ma'lumotlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etish.

d) Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri va statistika ishlarini tashkil qilish uchun zarur iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalarni yuritish sohasida:

yagona tizim asosida yuridik shaxslarni davlat tomonidan hisobga olish va identifikatsiyalashni, korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash hamda rivojlantirishni ta'minlash; statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatorlarni ishlab chiqarishda hamda yuritishda, halqaro standart klassifikatorlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishda ishtirok etish; o'zaro mos axborot tizimlarini va resurslarini yaratish uchun asos sifatida statistik klassifikatorlardan foydalanishni ta'minlash;

internet-resurslarga joylashtirish yo'li bilan statistik klassifikatorlar va ularga kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risida axborotlarni foydalanuvchilarga taqdim etib borish.

7. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Bo'limning ish usullarini yanada takomillashtirish, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va munosabat bildirish, vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun mas'uliyatlarini oshiradi;

KTYADRni aktallashtirish va tasarruf etish, KTYADRdagi korxonalar va tashkilotlar ma'lumotlarini kiritishda yuzaga kelgan xatolarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlaydi;

korxonalar va tashkilotlar haqida belgilangan tartibda to'liq va aniq ma'lumotlar bilan davlat va xo'jalik boshqaruv organlari hamda boshqa foydalanuvchilarni ta'minlaydi;

KTYADR ma'lumotlar bazasining arxiv nusxalarini saqlashni amalga oshiradi;

Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar, soliq organlari va boshqa organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

ro'yxatdan o'tkazuvchi organlardan kelib tushadigan KTYADR ma'lumotlari bilan ishlashni amalga oshiradi;

KTUT kodlarini biriktirilishi va uni takrorlanishini nazorat qiladi;

Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari tarkibiga kiruvchi tuzilmalar bo'yicha solishtirish ishlarini amalga oshiradi;

KTYADR foydalanuvchilariga axborot-ma'lumotnoma xizmatini ko'rsatadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko'rib chiqadi va ulardagi masalalarni hal qilish bo'yicha, zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida, takliflar tayyorlaydi;

KTYADRdagi klassifikatsiyalashtirish ko'rsatkichlarini davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish jarayonida olingan dastlabki statistika ma'lumotlari asosida o'z vaqtida o'zgartirishni amalga oshiradi;

statistika maqsadlari uchun zarur bo'lgan statistik klassifikatorlar va nomenklaturalar tizimini yuritadi va ularga o'zgartirishlar kiritadi, xalqaro standart klassifikatorlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishini amalga oshiradi;

statistik registr sohasiga oid maxfiy statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

hududiy statistika organlariga uslubiy hamda amaliy yordam ko'rsatadi;

Bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi, xolisligi, tezkorligi, kompleksligi va tizimlilikini ta'minlaydi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borolishini ta'minlaydi;

Xodim o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.